

# Jahon va moliya bozorlariga oid sharh


02 sentabr, 2025 yil



Bankni strategik rivojlantirish  
departamenti

## SQB, Ipoteka va NBU evrobondlarining daromadliligi (2025-yil 1 yanvar-02 sentabr, Bloomberg ma'lumotlariga ko'ra)


UzSQB, Ipoteka banki va O'zmilliybank evrobondlarining daromadliligi, foizlarda



- 2024-yilning yozida SQB Londondagi fond birjasida xalqaro obligatsiyalarni joylashtirdi. Savdolarning birinchi kunida ularning daromadliligi 9,362%ni tashkil etdi.
- SQB obligatsiyalarining daromadliligi o'tgan hafta boshida 6,802% darajasiga yetdi. Haftaning oxiriga kelib esa bu ko'rsatkich pasaydi va 6,786% ni tashkil etdi. Yil boshidan buyon daromadlilik 6,786% – 9,126% gacha o'zgarib turdi.
- O'tgan hafta NBU evrobondlarining daromadliligi 6,527% darajasida bo'lgan. Haftaning yakunida daromadlilik pasayib 6,519% ni tashkil etdi. Yil boshidan buyon bu ko'rsatkich 6,519-8,878% gacha o'zgarib turdi.
- O'tgan hafta Ipotekabank evrobondlarining daromadliligi 6,622% darajasida bo'ldi. Biroq, haftaning oxiriga kelib daromadlilik pasaydi va 6,615% ni tashkil etdi. Yil boshidan buyon daromadlilik 5,962% – 8,533% gacha o'zgarib turdi.


## SOFR va Euribor AQSH va Yevropadagi banklararo kreditlar bo'yicha o'rtacha foiz stavkasi

### SOFR dinamikasi




Yil boshidan buyon SOFR stavkasi 4,26-4,49% atrofida barqaror bo'lib turmoqda. Haftaning boshida SOFR stavkasi 4,37% ni tashkil etdi, haftaning oxiriga kelib esa u biroz pasayib, 4,34% ga yetdi. Bu bozor likvidligi va monetar siyosatdagi kutilmalarning o'zgarishlarini ko'rsatadi. Federal rezervning foiz stavkalari bo'yicha pozitsiyasi SOFR stavkasi darajasini belgilashda davom etmoqda. Siyosiy o'zgarishlar kutilmalari stavkada kichik o'zgarishlarga olib kelishi mumkin.


### Euribor dinamikasi



Euribor kutilganidan tezroq pasaymoqda. Yevropa Markaziy banki foiz stavkasini tez sur'atlar bilan kamaytirishni davom ettirmoqda. Buning sabablaridan biri – inflyatsiyaning pasayishi. Yevropadagi ko'plab ipoteka kreditlari bog'langan Yevropa banklararo stavkasi (Euribor) o'tgan haftaning boshiga kelib 2,061% (3 oylik) va 2,074% (6 oylik) darajalariga tushdi. 2023-yilning oktyabr o'rtalarida foiz stavkasi 4% dan oshgan edi. Euribor stavkasining tarixdagi eng yuqori darajasi 2008-yilning qishida qayd etilgan bo'lib, u deyarli 5,5% ni tashkil etgan. Yil boshidan buyon maksimal ko'rsatkichlar 2,685% (6 oylik) va 2,789% (3 oylik) ni tashkil etdi.




### O'zbekiston Respublikasi valyuta birjasidagi savdo hajmi, mln dollar



- ✓ O'tgan hafta valyuta birjasidagi savdo **1 102,0** million dollarni tashkil etdi, bu o'tgan haftaning savdo hajmiga nisbatan **327,2** million dollarga ko'proq.
- ✓ O'tgan haftaning boshida milliy valyutaning dollarga nisbatan maksimal kursi **12 305** so'mni tashkil etdi, keyin haftaning oxiriga kelib ko'tarilib **12 460** so'mga yetdi.
- ✓ Har yili so'm o'rtacha **3,5-4,5%** ga devalvatsiyaga uchraydi, 2023-yildan tashqari (**9,77%**), bu holat Rossiya valyutasi devalvatsiyasi eksport tushumlari kamayishi va mehnat migrantlarining pul o'tkazmalari bilan bog'liq edi. Joriy yil boshidan buyon revalvatsiya **3,44%** ni tashkil etdi.


### Dollarning so'mga nisbatan almashinish kursi



02.09.2025 yil holatiga ko'ra, aholi uchun dollar sotib olishda eng foydali kurs **Anor** bankda qayd etilgan – **12 465** so'm. Boshqa banklarda esa kurs **12 480–12 970** so'm atrofida o'zgarib turdi.




Aholi uchun dollar sotish bo'yicha eng foydali kurs **BRB** bankda qayd etilgan – **12 900** so'm. Boshqa ko'plab banklarda esa kurs **12 880–12 365** so'm atrofida bo'lgan.



## ➤ Rubl bosim ostida qolmoqda

USD/RUB kursi 80,5–81,0 rubl oralig'ida mo'tadil o'zgaruvchanlikni (volatillikni) namoyish etmoqda. Rublning eng katta mustahkamlanishi 26-avgust kuni kuzatildi, o'shanda kurs 80,6 gacha tushgan edi. Biroq, 27-avgustga kelib, u yana 81,0 darajasiga qaytdi. Bu qisqa muddatli tebranishlarga qaramay, rublga bosim saqlanib qolayotganini ko'rsatadi.


Rossiya yangi AQSh sanksiyalari xavfiga qaramay, xorijiy valyutani sotish orqali rublni qo'llab-quvvatlashni davom ettirdi. Rossiya Moliya vazirligi esa kunlik valyuta savdolari hajmini kamaytirdi, bu esa kursning barqarorlashishiga yordam berdi.



## ➤ Rubl yuan kursiga nisbatan barqaror

Hafta davomida rublning yuanga nisbatan kursi 11,0–11,6 oralig'ida bo'lib, mo'tadil tebranishlarni namoyish etdi. 26-avgust kuni rubl qisqa muddatga 11,6 darajasigacha mustahkamlandi, bu ehtimol yuan zaijlashuvi yoki ichki bozor faolligi bilan bog'liq bo'lgan. Biroq, ertasi kuni kurs yana 11,0 darajasidagi barqaror holatga qaytdi.

Hafta oxiriga kelib, rubl biroz mustahkamlanib, 11,1 darajasiga yetdi. Bu eksport tushumlari ortgani yoki Rossiyada yuanga bo'lgan talab kamaygani bilan izohlanishi mumkin. Sanksion bosimga qaramay, Rossiya va Xitoy o'rtasidagi milliy valyutalarda hisob-kitoblar hajmi o'sishda davom etmoqda, bu esa kursning barqarorligini ta'minlab turibdi.




## ➤ Yevro dollarga nisbatan barqaror

Hafta davomida EUR/USD kursi 1,1647–1,1727 oralig'ida tebranishlar ko'rsatdi, bu esa mo'tadil o'zgaruvchanlikni bildiradi. 27-avgust kuni yevroning qisqa muddatli zaijlashuvi (1,1647 gacha) Yevrozonadan kelgan sust iqtisodiy ma'lumotlar bilan bog'liq edi. Biroq, hafta oxiriga kelib, kurs 1,1708 darajasigacha tiklandi — bu AQSh Federal Rezerv tizimi (FRT)ning yumshoq siyosati kutilayotgani va dollarga bo'lgan talab pasaygani fonida sodir bo'ldi.

Xavflar saqlanib qolayotganiga qaramay, kurs barqarorligicha qolmoqda va AQSh hamda Yevropa Ittifoqi aktivlari o'rtasidagi manfaatlar muvozanatini aks ettirmoqda.

## Asosiy xom ashyo tovarlari narxlariga oid tahlil

Oltin narxlari dinamikasi  
(bir untsiya uchun,  
AQSh dollarida)




- Oltin narxi: o'sishda davom etmoqda, yangi rekordlarni yangilamoqda

Jahon bozorida oltin narxi bir untsiya uchun qariyb 3446,7 AQSh dollarigacha oshdi. Oltin narxlari so'nggi ikki hafta ichidagi eng yuqori darajada saqlanib qolmoqda. Bunga AQSh dollarining zaiflashuvi va AQSh Federal Rezerv tizimi (FRT) tomonidan foiz stavkalarini pasaytirish kutilayotgani sabab bo'lmoqda.

Investorlar shu hafta e'lon qiladigan AQSh inflyatsiyasi bo'yicha muhim ma'lumotlarni kutmoqda. Mutaxassislar fikricha, oltin narxi moliya bozoridagi xavflar va FRT mustaqilligi bilan bog'liq savollar fonida investorlarning ijobiy e'tiborini tortmoqda.

Hozir bozor e'tibori iste'mol xarajatlari indeksi (PCE) — FRT uchun inflyatsiyaning eng muhim ko'rsatkichi — bo'yicha ma'lumot e'lon qilinishiga qaratilgan. Ushbu hisobot juma kuni taqdim etilishi rejalashtirilgan.

Brent nefti narxlari dinamikasi  
(bir barrel uchun,  
AQSh dollarida)




- Brent neftining narxi bir barrel uchun 68,12 dollargacha oshdi

Seshanba kuni ertalab neft narxlari Rossiya neft yetkazib berishidagi barqarorlik bo'yicha xavotirlar fonida ko'tarildi. Bozordagi o'sishga, shuningdek, Ukrainaning Rossiya energetika obyektlariga qilayotgan hujumlari tufayli Rossiyadan neft yetkazib berishda uzilishlar bo'lishi mumkinligi haqidagi tashvishlar ham ta'sir ko'rsatmoqda.

Xitoy va Hindiston — Rossiya neftining eng yirik xaridorlari hisoblanadi. O'tgan oyda AQSh Hindiston tomonidan Rossiya neftini sotib olish davom etayotgani sababli, Hindiston mahsulotlariga qo'shimcha bojlar joriy qildi.

Shu bilan birga, talabning pasayishi va qazib olish hajmining ortishi fonida taklif ortiqchaligi yuzaga kelishi kutilayotgani neft narxining o'sishini cheklab turibdi.

TTF gaz narxlari dinamikasi  
(megavatt-soat uchun,  
AQSh dollarida)



- Yevropada gaz narxi pastga qarab siljidi

Niderlandiya va Buyuk Britaniya ulgurji gaz narxlari biroz pasaydi, bunga past talab sabab bo'ldi. Shu bilan birga, bu pasayishni Norvegiyada texnik xizmat ishlari tufayli gaz yetkazib berishning qisqarishi qisman qoplab turibdi.

Norvegiyada rejalashtirilgan texnik ishlar sababli gaz qazib olish hajmi pasayishda davom etmoqda, biroq bu ta'sirni suyultirilgan tabiiy gaz (SPG) yetkazib berishning barqarorligi va shamol energetikasining yuqori darajasi muvozanatlashtirmoqda.

Umuman olganda, Norvegiyadan gaz eksportiga bo'lgan kunlik buyurtmalar hajmi 12 million kub metrga kamaydi.

# Yangiliklar

## Gazprombank gibrid raqamli platformani ishga tushirdi

Gazprombank o'zining onlayn xizmatlarini shaxsiy maslahatlashuv imkoniyatlari — ya'ni chat va videoqo'ng'iroqlar orqali konsultatsiyalar bilan birlashtirdi. Natijada masofaviy bitimlar soni 20% ga oshdi va mijozlar qoniqish darajasi sezilarli ravishda yaxshilandi.

## CaixaBank shaxsiylashtirilgan moliyaviy tavsiyalar xizmatini ishga tushirdi

CaixaBank mijozlarning xatti-harakatlarini sun'iy intellekt (AI) algoritmlari yordamida tahlil qilib, ularga individual moliyaviy mahsulotlar va tavsiyalar taklif etmoqda.

## UniCredit Wise bilan hamkorlikda xalqaro pul o'tkazmalari xizmatini ishga tushirdi

UniCredit banki Wise kompaniyasi bilan hamkorlikda 15 milliondan ortiq mijozlar uchun mo'ljallangan xalqaro pul o'tkazmalari xizmatini yo'lga qo'ydi. Yangi xizmat yordamida mijozlar yevrodan bir necha turdagi valyutalarga tez va qulay tarzda mablag' o'tkazishlari mumkin bo'ladi.

## Agricultural Bank of China mobil banking uchun biometrik himoyani yaxshiladi

Iyul oyida bank yuzni va barmoq izini aniqlash bo'yicha ilg'or texnologiyalarni joriy etib, mobil tranzaksiyalar xavfsizligini oshirdi va firibgarlik holatlarining kamayishiga erishdi.

